

Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 6 996,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,3% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati *	6 996,0	109,3
Termiz sh.	1 903,2	109,2
Oltinsoy tumani	118,3	123,4
Angor tumani	185,5	110,8
Bandixon tumani	71,2	105,6
Boysun tumani	272,9	105,8
Muzrabot tumani	165,7	125,1
Denov tumani	430,3	104,1
Jarqo'rg'on tumani	267,6	108,7
Qumqo'rg'on tumani	183,4	121,4
Qiziriq tumani	165,6	103,6
Sariosiyo tumani	441,3	109,5
Termiz tumani	330,3	105,2
Uzun tumani	112,1	111,0
Sherobod tumani	194,8	105,7
Sho'rchi tumani	103,3	105,2

*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,9 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,3 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 172,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	132,8	492,7	39,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	169,2	137,0	401,2
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 519,9	1 032,4	263,7
<i>o'sish sur'ati, %</i>	106,5	94,9	160,2
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2514,7	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	107,8	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 665,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 148,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,4 % ga ko'payib, 9,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,5 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etgan holda 3 815,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 36,0 % ni yoki 2 514,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Surxondaryo viloyati *	665,4	3815,9	2514,7	148,5	105,5	107,8
Termiz sh.	55,6	1809,0	38,6	190,5	109,1	68,4
Oltinsoy tumani	29,4	65,6	23,3	650,2	98,9	92,7
Angor tumani	15,3	88,6	81,6	245,4	107,1	103,7
Bandixon tumani	6,5	34,6	30,1	99,0	103,7	109,5
Boysun tumani	9,1	171,1	92,7	102,3	103,6	110,5
Muzrabot tumani	20,9	60,6	84,2	98,0	171,3	110,9
Denov tumani	14,9	249,9	165,5	105,9	105,4	102,0
Jarqo'rg'on tumani	43,5	121,6	102,5	344,9	85,0	113,4
Qumqo'rg'on tumani	29,1	78,9	75,4	765,6	96,0	115,6
Qiziriq tumani	5,4	129,8	30,4	100,2	101,1	117,3
Sariosiyo tumani	223,1	97,4	120,8	131,8	82,6	104,3
Termiz tumani	20,5	214,9	94,9	152,6	95,1	127,7
Uzun tumani	24,5	46,5	41,1	107,7	93,6	145,0
Sherobod tumani	21,9	69,8	103,1	107,3	104,6	106,1
Sho'rchi tumani	2,7	65,1	35,5	123,7	101,2	112,0

*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qumqo'rg'on tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 765,6%), Oltinsoy tumani (344,9%) va Jarqo'rg'on tumani (344,9%) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Muzrabot tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 171,3%), Angor tumanida (107,1%) va Termiz shahriga (109,1%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Surxondaryo viloyati investitsiya va
qurilish statistikasi bo'limi

Ijrochi:

SH. Gaipov
55 451-80-00 (7520)

Manzil:

